

**YOSHLARDA FALSAFIY DUNYOQARASHNI  
SHAKLLANISHIDA MEDIASAVODXONLIKNING IJOBIY VA  
SALBIY TA'SIRLARI**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti Ijtimiyy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi(ma'naviyat asoslari) 1 kurs magistranti  
**Jalolova Dilnoza***

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bugungi rivojlanib borayotgan davrda mediasavodxonlikning o'rni va yoshlar ma'naviyati va falsafiy tafakkurini shakllantirishdagi roli va salbiy va ijobiy ta'sirlari , shuningdek, bu borada jahon va respublikamiz miqyosida amalga oshirilayotgan samarali islohotlar haqida so'z boradi. Mediasavodxonlikning bugungi tezkor rivojlanayotgan davr va uning yoshlar uchun ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** mediasavodxonlik, dunyoqarash axborot, internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, axborot kodeksi, domen

**Abstract:** This article talks about the role of media literacy in today's developing era, its role in the formation of the spirituality and philosophical thinking of young people, and its negative and positive effects, as well as the effective reforms implemented in this regard at the world and national level. Today's rapidly developing era of media literacy and its importance for young people will be revealed.

**Key words:** media literacy, world view, information, Internet, information and communication technologies, information code, domain

Falsafiy dunyoqarashning shakllanishida bilim g'oyatda muhim axamiyat kasb etadi. Bilimda dunyoqarashning barcha belgilari mavjud. Bilim va dunyoqarash aynan bir narsa emas. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev "Dunyoqarashni– ilm, daromad, manfaat o'zgartiradi"deb aytgan so'zlari fikrimiz

tasdig‘i deyish mumkin. Biror partiya yoki guruh o‘z maqsadlariga yetishish yo‘lida butun jamiyat uchun xos bo‘lgan umumiy ijtimoiy dunyoqarash tarkibida ko‘proq va salmoqliroq joy egallahsga yoki uni o‘z manfaatlari foydasiga o‘zgartirishga xarakat qiladi. Umuman, xayotda maqsadga erishishning eng oson va qulay yo‘li o‘zgalar dunyoqarashini jamiyat foydasiga o‘zgartira olishdir.

Mediasavodxonlik hozir har qachongidan ham muhimroq. Mediasavodxonlikning eng oddiy ta‘rifi: turli shakldagi ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda kirish, tahlil qilish, baholash, yaratish va harakat qilish qobiliyatidir. Oddiy qilib aytganda mediasavodxonlik an‘anaviy savodxonlik poydevoriga asoslanadi. Mediasavodxonlik odamlarga tanqidiy fikrlovchi va ijodkor, samarali muloqotchi va faol fuqarolar bo‘lish imkonini beradi.

Yoshlarda media va axborot ko‘nikmalarini rivojlantirish ilg‘or mediakompetensiyani talab qiladi. O‘qituvchilar auditoriyada multimedya proyektoridan (bugungi kunda kamdan kam hollarda taqdimotsiz ma‘ruza qilinadi), videomateriallardan, interaktiv doskadan faol foydalanadilar. Ba‘zi o‘qituvchilar muloqot qilish uchun ijtimoiy sahifa ochdilar va o‘quvchilar uchun so‘ngi ma‘lumotlarni joylashtirdilar. Bunda onlayn jamiyat a‘zolari professional rivojlanish uchun foydalanishadi.

Mediasavodxonlik deganda ko‘pchilik internet tarmog‘idan foydalanishni tushunadi. To‘g‘ri, bugungi kunda yoshlar orasidan asosan internet tarmog‘idan foydalanish keng tarqalgan

Yoshlarning Internetga qiziqlishi to‘rtta asosiy omil tufayli rivojlanadi deya hisoblanadi:

- turli xildagi ma‘lumotlarga kirishga imkoniyatning mavjudligi;
- keng interaktivlik, doimiy muloqotning mavjudligi;
- o‘zi haqidagi ma‘lumotlar ustidan shaxsiy nazorat, ma‘lum bir “obraz”ni yaratish imkonи;
- uzatilayotgan ma‘lumotlarning anonimligi.

Davlatimiz rahbarining 2017 yil 5 iyuldagagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmoni bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Amalga oshirilayotgan keng ko‘lamlı islohotlar eng avvalo, o‘zbekiston yoshlarining sog‘lom dunyoqarshini shakllantirish uchundir. Ushbu maqsadga yo‘lida har bir yosh o‘z oldiga kattta marralar qo‘yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko‘mak berish davlat va jamiyat uchun eng ustun vazifa bo‘lishi zarur. Bu esa yosh avlod tarbiyasiga har doimgidanda ko‘proq mas‘uliyatli va befarq bo‘lmaslikni talab etish bilan masalaning dolzarbligini ifodalaydi.<sup>1</sup>

Bugungi kunda yoshlar orasida ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni yildan yilga ortib bormoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ayni vaqtida respublikada ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni 46 million bo‘lib, tarmoq foydalanuvchilarining aksariyatini yoshlar va voyaga yetmaganlar tashkil etadi. Mamlakat aholisining 18,9 mln. nafari yoki 54 foizini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar va bolalar tashkil etadi. Respublikada yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida 2017 — 2020-yillarda 50 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilindi.<sup>2</sup>

Internet tarmog‘idagi “UZ” domenida ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilar soni hozirgi kunda 98 mingtadan oshgan bo‘lsa-da, milliy resurslarga tashrif buyuruvchilarining o‘rtacha oylik soni 60 milliondan ortiqdir. Bu o‘z navbatida milliy kontent resurslarini yanada boyitishni taqozo etadi. Shu sababdan, o‘quvchi, talaba-yoshlar va ayniqsa uyushmagan yoshlarning ongiga juda katta putur etkazishi mumkin bo‘lgan behayolikni tarqatuvchi, diniy murosasizlikni keltirib chiqaruvchi, turli ko`ngilochar onlayn o`yinlar, totalizatorlar, oilaviy

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi farmoni. 05.07.2017y. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘grisida”gi 18.01.2021 yildagi 23-sod qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

me'yorlarni rad etadigan hamda jamiyatda, fuqarolar o`rtasida zararli va axloqsiz g`oyalarini yoyadigan kontent va saytlarga qarshi tura olish har bir fuqaroning eng muhim vazifasidir. Mana shunday illatlardan, har xil tahdidlar, begona g`oyalar ta'siridan yoshlarimizni asrab-avaylash maqsadida Oliy Majlis yuqori palatasi ya'ni Senati 2022- yil 4-fevralda bo`lib o`tgan 23-yalpi majlisda internetda yoshlari va voyaga etmaganlar uchun milliy kontentni yo`lga qo`yish, ularning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi va ularni zararli, foydasiz axborotdan himoya qilish to`g`risida Vazirlar Mahkamasiga parlament so`rovi yuborishga qaror qildi.<sup>3</sup> Ushbu ahamiyat qaratilishi lozim bo`lgan masala yuzasidan 2022–2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi binoan, mamlakatimizda milliy ijtimoiy tarmoq va messengerlar yaratiladi hamda ular to`plagan auditoriyaga qarab soliq imtiyozlari berilishi ko`zda tutilmoqda. Bundan tashqari axborot sohasini tartibga solish maqsadida “Axborot kodeksi” loyihasi ishlab chiqilishi ko`zda tutilgan.<sup>4</sup>

Bugungi kunda falsafiy tafakkurning yangilanishi nafaqat umumiy ma'naviy muhitning, balki har bir jamiyat a'zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarining o'zgarishi hamdir.

### XULOSA.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mediasavodxonlik natijasida yoshlari hayotda umuman ta'lim jarayonida ham axborotlarni sifatini tahlil etish va baholash ko'nikmalarini egallaydilar. Biz hammamiz media olamda yashaymiz va har kuni media savodxonlik muommolariga duch kelamiz. Yoshlarga bunday qiyin sharoitda o'zini tutish qoidalari va o'z-o'zini himoya eta olishni o'rgatish juda muhimdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarosi, 04.02.2022y. SQ-479 IV-son. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

<sup>4</sup> "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". 28.01.2022y. PF-60. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

1. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi farmoni. 05.07.2017y. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". 28.01.2022y. PF-60. www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarosi, 04.02.2022y. SQ-479 IV-son. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'grisida"gi 18.01.2021 yildagi 23-son qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
5. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Media\\_savodxonlik](https://uz.wikipedia.org/wiki/Media_savodxonlik)